

О'ZBEKISTONDA FOLKLOR NA'MUNALARI RIVOJI YO'LIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN AMALIY ISHLAR SAMARASI

Namangan davlat universiteti
Munira Sharipova

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi va uning hozirgi davrdagi o'rni, folklor na'munalari e'tibor va milliy qadriyatlarimizning rivojlanishiga qaratilgan sa'y harakatlar xususida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, o'zbek xalq marosimlarida aytiladigan to'y marosimi va bolalar folklori na'munalari, folklor na'munlari yozib olinishi va xalqimiz va ommaga tadbiq etilishida buyuk xizmat ko'rsatgan olimlarga ham alohida izoh berilgan.

Key words: folklor, qo'shiq, lapar, mif, afsona, yor-yor, janr, aytimlar, folklorshunoslik.

РЕЗЮМЕ ПРАКТИЧЕСКИХ РАБОТ, ПРОВОДИМЫХ ПО РАЗРАБОТКЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ОБРАЗЦОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Наманганский государственный университет
Мунира Шарипова

Аннотация: в данной статье говорится о фольклоре и его месте в современную эпоху, внимание к примеру фольклора и усилия, направленные на развитие наших национальных ценностей. При этом особое внимание было уделено образцам свадебного обряда и детского фольклора, воспеваемым в узбекских народных обрядах, и ученым, оказавшим большую услугу в записи образцов фольклора и применении их к нашему народу. и общественность.

Ключевые слова: фольклор, песня, лапарь, миф, легенда, ёр-ёр, жанр, поговорки, фольклор.

SUMMARY OF PRACTICAL WORKS THAT ARE BEING IMPLEMENTED FOR THE DEVELOPMENT OF FOLKLORE SAMPLES IN UZBEKISTAN

Namangan State University
Munira Sharipova

Abstract: this article talks about folklore and its place in the present era, attention to the example of folklore and efforts aimed at the development of our national values. At the same time, a special comment was given to the examples of the wedding ceremony and children's folklore, which are sung in Uzbek folk ceremonies, and to the

scientists who have rendered great service in the recording of folklore examples and their application to our people and the public.

Key words: folklore, song, lapar, myth, legend, yor-yor, genre, sayings, folklore.

Asrlar o'tsada xalq og'zaki ijodi rivojlanib, uzuksiz davom etib kelayotgan kollektiv ijoddir. Xalq og'zaki ijodi na'munalari har bir xalq millat hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari turli marosimlarlar uyushtirish va tabiat hodisalarii ilohiylashtirish natijasida paydo bo'lib, yozma adabiyotning yaratilishi uchun zamin yaratgan. Xalq og'zaki ijodi "Folklor" deb ham yuritiladi va folklor na'munalari xalqning orzu umidlari, o'y – hayollari, irodasi, tarixi, shu bilan birga tarixiy haqiqatini ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi keng qamrovni tashkil etib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: qo'shiq, maqol, matal, afsona rivoyat, asotirlar, alla, yor- yor, lapar, kelin salomlar va hakazo.

Bunday avloddan avlodga o'tib keluvchi va kelajak uchun zaruriy ehtiyojlarni yaratishga asos bo'lib xizmat qilish vazifasini bajaruvchi omillardan biri folklor na'munalari. Folklorning yaratilish tarixi insoniyat paydo bo'lgan davrlarga borib taqalgani bois, har bir hududning folklor na'munalari o'sha hudud tarixi haqida beqiyos ma'lumotlar beradi. O'zbekiston tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko'hnaligi nafaqat moddiy balki, madaniy qadriyatlarda ham o'z ifodasini topgan. Bu an'ana hamda udumlarimiz to'g'risida etnograf olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o'z asar va kundaliklarida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Buning yorqin dalili sifatida Xerman Vamberining "Sayoxatnoma" hamda, Rui Gonsales de Klavixonning "Kundalik" asarlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbek xalqida to'y marosimlari juda ham muhim voqea hisoblanib, respublikamizning turli hududlarida turlicha to'y marosim folklor na'munalari rivoj topgan. O'zbek olimlaridan K. Shoniyozov ilmiy nazariy asarlarida o'zbek nikoh to'yining barcha jarayonlariga: sovchilik, fотиha, bevosita nikoh to'yi urf-odatlariga va to'ydan keyin o'tkaziladigan udumlarga alohida e'tibor qaratadi.

O'tkan asrning 20- yillaridan boshlab xalq og'zaki ijodi na'munalari e'tibor sezilarli darajada o'sdi va buning yorqin dalili sifatida folklorshunoslikning fan sifatida yuzga kelishida ham ko'rishimiz mumkin. Albatta bunda bir necha yuzlab fidoiy insonarning xizmatlari katta. Xususan, bu ishga birinchilardan qo'l urgan folklorshunos olim bu - G'ozi Olim Yunusov hisoblanadi. Uning sa'y harakatlari natijasida xalqimizning qadimiy, bebaxo xalq og'zaki ijodi na'munalariidan biri bo'lgan "Alpomish" dostonining ayrim qismlari baxshilar tilidan yozib olingan bo'lib, afsuski bu ma'lumotlar hozirga kelib yo'qolgan deb ta'kidlanadi.[1] Ulardan so'ng bu ishni mashxur folklorshunos olim Xodi Zaripov davom ettirdi. Shu jumladan, o'sha paytlarda bu yo'nalish rivoji yo'lida Mansur Abzalov, Jumaniyoz Qobilniyozov,

Muzayyana Alyaviyalar ham tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirishdi. Bugungi kungacha esa bu yo'lda akademik To'ra Mirzayev, Mamatqul Jo'rayev, Jabbor Eshonqulov Shomirza Turdiyev kabi ustozlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borshdi. Mazkur olimlarning har biri folklor yo'nalishining ayrimlarini o'zlashtirib ular ustida chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, Muzayyana Alaviya xalq qo'shiqlarini o'rgangan bo'lsa, Mansur Abzalov xalq ertaklarini, Komiljon imomov xalq nasr poetikasini, Mamatqul Jo'rayev esa seHrli raqamlarning folklorda ishlatilishi kabilarni o'rgangan. Mamatqul jo'rayev izlanishlari natijasida "Sehrli raqamlar siri", "O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar", "El desa Navoiyni", "Navro'z", "Ipak yo'li afsonalari", "O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar", "O'zbek xalq samoviy afsonalari", "Oy oldida bir yulduz", "Mif, folklor va adabiyot" singari 30 dan ortiq monografiya va kitoblar muallifiga aylandi. U o'zbek filologiyasining atoqli namoyandalaridan biri, xalq og'zaki badiiy ijodiyotini keng ko'lamda tadqiq etishdan iborat fundamental ilmiy maktabga asos solgan fan tashkilotchisi, eposshunoslikning ko'plab nazariy masalalarini olamshumul darajada hal qilgan yirik folklorshunos olim edi.[2]

Istiqlol yillarida o'zbek ertakshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi. Folklorshunos olim Komiljon Imomov o'zbek xalq nasrining janrlar tarkibini tasniflashning ilmiy mezonlarini bayon qildi, ertak va ijtimoiy hayot, ertak motivlari va qadimgi marosimlarning o'zaro munosabati, o'zbek xalq ertaklarining asosiy syujet tiplari, obrazlar tarkibi va badiiy xususiyatlariga doir qator tadqiqotlarini, jumladan "O'zbek xalq nasri poetikasi" nomli monografiyasini (2008) nashr ettirdi.[3]

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi barcha folklorshunos olimlar uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochib, xalq og'zaki ijodi na'munalarini barcha hududlar bo'yicha izchil to'plash va bir tizimga solish borasidagi ishlarni jadallashtirib yubordi. Buning natijasida xalqimiz orasida og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bolalar folklori, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosimlari bilan bog'liq bo'lgan na'munalar qog'ozga tushirildi.

Folklor shu qadar keng qamrovli ekanining yana bir isbotini necha yillardan beri ularni to'plash va taxlil qilishning davom etayotganidan ham bilib olish mumkin. Xalqimizning nodir san'at asarlarini asrab avaylash rivojlantirishga qaratilgan yana bir diqqatga sazovor hodisa bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari"ning 100 jildlik majmuasining nashr etish yo'lga qo'yilganidir. Mazkur 100 jildlik, o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi asarlarining eng mukammal namunalarini qamrab oladi. Ushbu nashrning 59 jildi dostonlar, 10 jildi xalq qo'shiqlari, 12 jildi ertaklar, qolgan jildlar esa terma, afsona, rivoyat, naql, maqol, topishmoq, askiya, lof, latifa, og'zaki drama, bolalar folklori va boshqa janrlardan iborat bo'ladi.

Folklor na'munalari va ularni o'rganish haqidagi bilimlar keng sarhadlarni egallab, ajdodlarimizdan qolgan bu buyuk boylik yangi kelajak avlodni haqiqiy ma'noda komil va barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kelgusi avlodga sof xalq og'zaki ijodi na'munlarini yetkazish yo'lida nafaqat folkloshuos olim va adabiyotchilar balki, har birimizning ham o'rnimiz beqiyos. Zero, har bir o'zbek farzandi folklorning yorqin na'munasi bo'lmish "Alla" orqali dunyoni taniydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. YouTubeda tomosha qiling: Etno: Xalq og'zaki ijodi haqida
2. <https://youtu.be/1x3R3rQKggU>
3. <https://qashqadaryo.uz/oz/nview/bkd1616649826>
4. Folklorshunoslikka kirish. M.Jo'rayev "Barkamol fayz media" nashriyoti. 2017